

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Respublikada bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 544,3 mln. AQSH dollariga yetdi va 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 90,8 % ni tashkil etdi.

### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023-y.: **544,3** **90,8 %**

(2022-y.: **599,3**)



**Saldo**

2023-y.: **133,3** (2022-y.: **106,3**)



#### Eksport

2023-y.: **338,8** **96,0 %**

(2022-y.: **352,8**)



**Tovarlar: 337,5**



**Xizmatlar: 1,3**



#### Import

2023-y.: **205,5** **83,4 %**

(2022-y.: **246,5**)



**Tovarlar: 188,6**



**Xizmatlar: 16,9**

Qoraqalpog‘iston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, 184,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 91,6 mln. AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, import 92,6 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING  
MDH DAVLATLARI  
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)**



<p><b>Rossiya</b> TSA – 95,8 Eksport – 55,6 Import – 40,2</p> 	<p><b>Qozog‘iston</b> TSA – 58,0 Eksport – 25,9 Import – 32,1</p> 
<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b> TSA – 9,6 Eksport – 4,4 Import – 5,2</p> 	<p><b>Belarus</b> TSA – 13,7 Eksport – 0,1 Import – 13,6</p> 
<p><b>Tojikiston</b> TSA – 2,7 Eksport – 2,7 Import – 0,0</p> 	<p><b>Ukraina</b> TSA – 0,4 Eksport – 0,3 Import – 0,1</p> 
<p><b>Turkmaniston</b> TSA – 2,0 Eksport – 0,6 Import – 1,4</p> 	


Qoraqalpog‘iston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya 95,8 mln, Qozog‘iston 58,0 mln hamda Belarus 13,7 mln bilan qayd etildi.




**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING**  
**TUMANLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI**  
**(2023-yil yanvar-dekabr)\***

	Hajm Ming. AQSH dollari	O‘shish sur‘ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>544 339,5</b>	<b>90,8</b>	<b>100,0</b>
Nukus shahri	308 573,8	84,2	56,7
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	18 577,8	199,9	3,4
Beruniy	12 379,9	71,3	2,3
Bo‘zatov	1 932,1	153,2	0,4
Qorao‘zak	10 053,7	23,7	1,8
Kegeyli	9 253,5	109,6	1,7
Qo‘ng‘irot	17 720,0	139,5	3,3
Qonliko‘l	15 919,5	108,2	2,9
Mo‘ynoq	30 392,1	81,3	5,6
Nukus	7 889,1	164,3	1,4
Taxiatosh	18 445,3	92,2	3,4
Taxtako‘pir	5 682,6	316,6	1,0
To‘rtko‘l	37 965,7	113,7	7,1
Xo‘jayli	13 222,5	197,7	2,4
Chimboy	14 123,8	136,3	2,6
Shumanay	6 130,5	319,4	1,1
Ellikqal‘a	15 727,7	150,3	2,9

**Eng yuqori hajm,**  
**ming AQSH dollari**



**Eng quyi hajm,**  
**ming AQSH dollari**



Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 56,7 % ulush bilan 308 573,8 ming. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bo‘zatov tumani 0,4 % ulush bilan 1 932,1 ming. AQSH dollarini tashkil etdi.




## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan 338,8 mln. AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2022-yilning mos davriga nisbatan 96,0 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi % da)




Qoraqalpog‘iston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.


## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TUMANLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023-yil yanvar-dekabr)\*

	Hajm Ming. AQSH dollari	O‘shish sur‘ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>338 825,9</b>	<b>96,0</b>	<b>100,0</b>
Nukus shahri	219 213,2	84,5	64,7
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	14 801,4	197,3	4,4
Beruniy	8 337,2	79,0	2,5
Bo‘zatov	1 870,9	158,1	0,6
Qorao‘zak	3 563,2	246,8	1,1
Kegeyli	7 108,6	110,3	2,1
Qo‘ng‘irot	9 551,8	302,0	2,8
Qonliko‘l	13 860,0	103,4	4,1
Mo‘ynoq	8 376,3	65,5	2,5
Nukus	4 674,3	133,0	1,4
Taxiatosh	4 079,1	58,1	1,2
Taxtako‘pir	5 440,2	323,4	1,6
To‘rtko‘l	7 930,7	128,8	2,4
Xo‘jayli	2 746,6	118,0	0,8
Chimboy	7 321,8	126,9	2,2
Shumanay	6 007,5	318,1	1,8
Ellikqal‘a	13 592,9	161,0	4,0

**Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari**



**Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari**



Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 64,7 % bilan 219 213,2 ming. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bo‘zatov tumani 0,6 % bilan 1 870,9 ming. AQSH dollarini tashkil etdi




## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 205,5 mln. AQSH dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan 83,4 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (25,7 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,5 %), sanoat tovarlari (10,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (12,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



### XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, 205,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 16,9 mln. AQSH dollariga yetdi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING**  
**TUMANLAR KESIMIDA IMPORTI**  
*(2023-yil yanvar-dekabr)*

	Hajm Ming. AQSH dollari	O‘shish sur‘ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>205 513,6</b>	<b>83,4</b>	<b>100,0</b>
Nukus shahri	89 360,6	83,6	43,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	3 776,5	210,7	1,8
Beruniy	4 042,6	59,5	2,0
Bo‘zatov	61,2	78,1	0,0
Qorao‘zak	6 490,5	15,9	3,2
Kegeyli	2 144,9	107,6	1,0
Qo‘ng‘irot	8 168,2	85,6	4,0
Qonliko‘l	2 059,5	157,6	1,0
Mo‘ynoq	22 015,7	89,5	10,7
Nukus	3 214,8	250,0	1,6
Taxiatosh	14 366,2	110,7	7,0
Taxtako‘pir	242,3	215,4	0,1
To‘rtko‘l	30 035,0	110,3	14,6
Xo‘jayli	10 475,9	240,3	5,1
Chimboy	6 801,9	148,1	3,3
Shumanay	123,0	393,4	0,1
Ellikqal‘a	2 134,8	105,5	1,0

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 43,5 % bilan 89 360,6 ming. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shumanay tumani 0,1 % bilan 123,0 ming. AQSH dollarini tashkil etdi.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Tovar** – har qanday ko‘chma mulk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo‘lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumldan konteynerlar va boshqa transport uskunolari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

**Tovarlar eksporti** – agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**Reeksport** – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

**Tovarlar importi** – tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

**Reimport** – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi tovarlari O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko‘rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o‘n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

**Tashqi savdo aylanmasi** – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

**Tovarlar kelib chiqqan mamlakat** – tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

**Tovarlarning belgilangan manzili** – yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma‘lum bo‘lgan mamlakat.

**Tovarlarning statistik qiymati** – shartnoma valyutasidan qat‘i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.

**SIF (qiymat, sug‘urtalash, fraxt)** – tovarlarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug‘urtalash hamda import qiluvchi mamlakat portigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**SIP (fraxt/tashish va sug‘urtalash)** – tovarlarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug‘urtalash hamda import qiluvchi mamlakatning chegarasidagi belgilangan joygacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**FOB (bortda erkin)** – tovarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha yetkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

**DAF (chegaragacha yetkazib berish)** – tovarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo‘shni mamlakat chegarasigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**Xizmatlar (ishlar) eksporti** — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat‘i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

**Xizmatlar (ishlar) importi** — norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat‘i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

*Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*